



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 1-son

VOLUME 6 / ISSUE 1 / 2026
ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.1)

ISSN 2181-2179
DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ)



MUNDARIJA

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Sultonova Lobar Mamarayim qizi

EKSTRADITSIYANI JINOYAT-PROTSESSUAL TARTIBGA SOLISHDA
XALQARO KELISHUVLARNING ROLI 8

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

Gafurova Shoira Baxodirovna

XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLARNING MAQBULLIK VA
ISHONCHLILIK MEZONLARI21

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

Nuridinov Ramzidin Lutfidin o'g'li

DAVLAT XARIDLARINI RAQAMLASHTIRISH KORRUPSION XAVFLARNI
KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDA33

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

Tillaboyev Shohruxbek Mirzatillo o'g'li

XALQARO HUQUQDA RAQAMLI INSON HUQUQLARI: HUQUQLARNING
YANGI AVLODI SHAKLLANISHI42

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIYA FAOLIYATI

Islombekov Bexzodbek Islombekovich

METROPOLITEN OBYEKTLARIDA QOLDIRILGAN NARSA VA ASHYOLARNING
JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI60

Normatova Shirin Abdulnabiyevna

TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN JABRLANGAN XOTIN-QIZLARNI
REABILITATSIYA QILISH TARTIBINING NAZARIY JIHATLARI68

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Султонова Лобар Мамарайим кизи

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ
РЕГУЛИРОВАНИИ ЭКСТРАДИЦИИ 8

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

Гафурова Шоира Баходировна

КРИТЕРИИ ДОПУСТИМОСТИ И ДОСТОВЕРНОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ
В МЕЖДУНАРОДНОМ УГОЛОВНОМ ПРАВЕ21

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

Нуридинов Рамзидин Лутфидин угли

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК КАК ИНСТРУМЕНТ
СНИЖЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ33

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

Тиллабоев Шохрухбек Мирзатилло угли

ЦИФРОВЫЕ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ:
СТАНОВЛЕНИЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ ПРАВ42

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Ислombeков Бехзодбек Ислombeкович

УГРОЗА ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ, СВЯЗАННАЯ С ОСТАВЛЕННЫМИ
ВЕЩАМИ И ПРЕДМЕТАМИ НА ОБЪЕКТАХ МЕТРОПОЛИТЕНА60

Норматова Ширин Абдулнабиевна

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОРЯДКА РЕАБИЛИТАЦИИ ЖЕНЩИН,
ПОСТРАДАВШИХ ОТ ПРИТЕСНЕНИЯ И НАСИЛИЯ68

CONTENTS

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Sultonova Lobar Mamarayim kizi

THE ROLE OF INTERNATIONAL AGREEMENTS IN THE CRIMINAL
PROCEDURAL REGULATION OF EXTRADITION 8

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

Gafurova Shoira Bakhodirovna

CRITERIA FOR ADMISSIBILITY AND RELIABILITY OF EVIDENCE
IN INTERNATIONAL CRIMINAL LAW21

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEM

Nuridinov Ramzidin Lutfidin ugli

DIGITALIZATION OF PUBLIC PROCUREMENTS AS A TOOL FOR REDUCING
CORRUPTION RISKS33

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

Tillaboev Shohrukhbek Mirzatillo ugli

DIGITAL HUMAN RIGHTS IN INTERNATIONAL LAW:
THE FORMATION OF A NEW GENERATION OF RIGHTS42

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

Islombekov Bekhzodbek Islombekovich

THE THREAT OF ABANDONED ITEMS AND OBJECTS
TO PUBLIC SAFETY IN METROPOLITAN FACILITIES60

Normatova Shirin Abdulnabiyevna

THEORETICAL ASPECTS OF THE REHABILITATION PROCEDURE FOR
WOMEN VICTIMS OF HARASSMENT AND VIOLENCE68

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.03.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.6.1./ASTN5030>
UDC: 343.346.1+351.812(045)(575.1)

METROPOLITEN OBYEKTLARIDA QOLDIRILGAN NARSA VA ASHYOLARNING JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI

Islombekov Bexzodbek Islombekovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
Metropolitenida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi
Terrorizmga qarshi kurashish bo'linmasi boshlig'i
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0952-7381>
e-mail: islambekov1802@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada metropoliten obyektlarida qoldirilgan narsa va ashyolar hamda uning hududiga olib kirishga uriniladigan taqiqlangan buyumlar jamoat xavfsizligini ta'minlashda yuqori xavf manbasi ekanligi tahlil qilingan. Toshkent metropoliteni obyektlarida qoldirilgan narsa va ashyolar va moddalarni tekshirishning optimal yechimlari ko'rib chiqilgan. Bu borada xorijiy davlatlarning tajribalari, shuningdek, dunyoning bir qator mamlakatlari metropoliten obyektlarida qoldirilgan ashyolar hamda taqiqlangan buyumlar yordamida sodir etilgan terrorchilik aktlarining fojiali oqibatlari o'rganilgan. Tadqiqotda kompleks yondashuv qo'llandi, ishning metodologik asosini esa tizimli, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi. Maqola yakunida mavzu yuzasidan bir qator ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** jamoat xavfsizligi, xavf manbasi, qoldirilgan narsalar, taqiqlangan ashyolar, terrorchilik akti, rentgen nuri orqali tekshiruvchi qurilmalar*

УГРОЗА ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ, СВЯЗАННАЯ С ОСТАВЛЕННЫМИ ВЕЩАМИ И ПРЕДМЕТАМИ НА ОБЪЕКТАХ МЕТРОПОЛИТЕНА

Ислombeков Бехзодбек Ислombeкович,
самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан,
начальник подразделения по борьбе с терроризмом
Управления обеспечения безопасности в метрополитене

***Аннотация.** В статье анализируется, что оставленные на объектах метрополитена предметы, а также запрещенные вещества, которые*

пытаются пронести на его территорию, представляют собой высокий источник угрозы для обеспечения общественной безопасности. Рассмотрены оптимальные решения по проверке оставленных предметов и веществ на объектах Ташкентского метрополитена. В данном контексте изучен опыт зарубежных государств, а также трагические последствия террористических актов, совершённых в метрополитенах ряда стран мира с использованием оставленных предметов и запрещённых веществ. В исследовании применён комплексный подход, методологическую основу работы составляют методы системного, логического и сравнительного анализа. В заключительной части статьи выдвинут ряд научных предложений и рекомендаций по рассматриваемой теме.

Ключевые слова: общественная безопасность, источник угрозы, оставленные вещи, запрещённые предметы, террористический акт, рентгеновские досмотровые устройства

THE THREAT OF ABANDONED ITEMS AND OBJECTS TO PUBLIC SAFETY IN METROPOLITAN FACILITIES

Islombekov Bekhzodbek Islombekovich,

Independent Researcher at the University of Public Security
of the Republic of Uzbekistan,
Head of the Counterterrorism Unit,
Department for Ensuring Security in the Metro

Abstract. *The article analyzes the fact that objects and materials left in metropolitan facilities and prohibited items attempted to be brought into its territory are a source of high risk in ensuring public safety. Optimal solutions for checking objects and materials left in Tashkent metro facilities are considered. In this regard, the experience of foreign countries, as well as the tragic consequences of terrorist acts committed using objects and prohibited items left in metropolitan facilities in a number of countries of the world, were studied. A comprehensive approach was used in the study, and the methodological basis of the work is the methods of systematic, logical, and comparative analysis. At the end of the article, a number of scientific proposals and recommendations on the topic are put forward.*

Keywords: *public safety, abandoned items, prohibited items, source of danger, act of terrorism, X-ray screening devices*

Kirish

XXI asrda dunyo mamlakatlari yirik shaharlari, megapolislarining ikki yuzdan ortiq metropolitenlarida jamoat tartibi, xavfsizligini ta'minlash yechim topilishi zarur va shart bo'lgan eng dolzarb global muammoga aylandi. Buni jahonda yuz berayotgan tahlikali hodisalar, terroristik va ekstremistik g'oyalarning kuchayishi

bilan bog'liq holda sodir etilayotgan jinoyatlarning misli ko'rilmagan talafotlar keltirayotgani bilan izohlash mumkin. Manbalarga ko'ra, 1977–2017-yillar oralig'ida dunyo metropolitenlarida sodir etilgan 33 ta terroristik akt oqibatida 465 nafar odam hayotdan ko'z yumgan, 8 535 nafar kishi turli darajada tan jarohati olgan (Shvetsov, 2018). Terrorchilik aktlarining aksariyati AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya, Belarusda sodir etilgan bo'lsa-da, bundan xulosa chiqargan boshqa mamlakatlar ham metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasida o'ziga xos kompleks xavfsizlik chora-tadbirlarini ishlab chiqdilar.

Ushbu maqolaning maqsadi metropoliten obyektlarida qoldirilgan narsa va ashyolar hamda taqiqlangan buyumlarning jamoat xavfsizligini ta'minlashga ta'siri masalalarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot doirasida G.G. Paylevanyan (1991), A.S. Igoshkina (2009), T. Uilyamson (Williamson, 2013), S. Seriani (2018), M. Ziyodullayev, M. Eshnazarov (2019), M.A. Smirnov (2020), V.S. Galetskiy (2021), E. Beyli (Baley, 2022), I. Ismailov, N. Xo'jayorova (2023) kabi olimlarning metropolitenda jamoat xavfsizligi muammolariga bag'ishlangan qarashlari tahlil qilindi. Ularning yondashuvlari dunyo metropolitenlarida sodir etilgan terroristik aktlarning tub ildizlari, mohiyati, bu holatga qarshi huquqiy asoslarning o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda o'rganilayotgan mavzuga kompleks yondashuv qo'llandi. Ishning metodologik asosini tizimli, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi. Metropoliten obyektlarida qoldirilgan ashyolar hamda olib kirishga urinilgan taqiqlangan buyumlarning jamoat xavfsizligiga tahdidi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar hamda amaliyotda mavjud muammolarni tizimli o'rganish asosida tahlil qilindi. Maqola yakunida muammoga yechim sifatida muallif xulosa va takliflarini ishlab chiqdi.

Asosiy qism

Metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillardan biri – metropoliten hududi, poyezd vagonlari ichida yo'lovchilar unutilib qoldirgan narsa va ashyolar bo'lib, buni metropoliten ma'muriyati favqulodda hodisa sifatida qabul qiladi. Bundan tashqari, ayrim yo'lovchilar tomonidan olib kirishga urinilgan taqiqlangan moddalar va buyumlar (masalan, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, kesuvchi-sanchiluvchi o'tkir tig'li jismlar, narkotik moddalar, ularning prekursorlari, radioaktiv va zaharli moddalar va h.k.) ham shular jumlasidan.

Ma'lumki, metro xizmatidan foydalanuvchi yo'lovchilarning yerosti o'tish joylari, metro platformasi, elektropoyezd vagonlari, uning kirish, nazorat-o'tkazish joylari (NO'J), kassa oldi, depolar hududi, parapetlarda buyumini unutilib qoldirishlari atrofdagilar uchun yuqori darajada xavf tug'diradi hamda muayyan tartib-taomillar asosida tekshiruvni talab qiladi.

“Metropolitenda yo'lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo'lish qoidalari”ning “Metropolitendan foydalanishda xavfsizlik talablari” deb nomlanuvchi 2-bobi 7-bandida “Qoldirilgan ashyoga (buyumga) biror-bir mexanik ta'sir ko'rsatish (boshqa joyga olib o'tish, ochish va boshqalar) uning atrofidagi yorug'likni, haroratni va tovushni o'zgartirish hamda ashyo yaqinida radioelektr vositalaridan foydalanish



qat'iyon man etiladi", deyilgan. Shunday favqulodda holat yuz berganda, ya'ni Toshkent metropoliteni bekatida egasiz qoldirib ketilgan buyum (ashyo) aniqlangan taqdirda uning atrofi o'rab olinib, belgilangan guruh uni qo'riqlab turadi va maxsus sapyorlar guruhining kelishi kutiladi. Maxsus guruhning yetib kelish vaqti bekat joylashuviga qarab 2 daqiqadan 30 daqiqagacha bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bekatlarda fuqarolarning yig'ilib qolishiga, vaziyatning taranglashuviga, ba'zida jamoat tartibining buzilishiga olib keladi. Agar ashyo yoki modda poyezd ichida bo'lsa, yo'lovchilar tushirib yuboriladi, poyezd yo'nalishdan olinadi va ichidagi buyum (ashyo)ni tekshirish uchun vagon (buyum aniqlangan joydan) bir necha bekat uzoqlikdagi poyezdlar turadigan joyga olib boriladi. Bu vaqt davomida ayrim metro bekatlarida harakatda uzilish ro'y berib, tirbandlik hosil bo'ladi, yo'lovchilarda bezovtalik, tashvishlanish holati kuzatiladi.

Metropoliten hududida qoldirilgan narsa va ashyolarning yuqori xavf manbai ekanligi nimalarda isbotlangan va nima uchun shunday hisoblanadi?

Ingliz tadqiqotchisi T. Uilyamsonning qayd etishicha, 2005-yil 7-iyul kuni London zamonaviy terrorizmning eng yomon namunalaridan biri bilan to'qnashdi. G'arb ruhiyatiga ta'siri bo'yicha 11-sentabr voqealaridan keyin ikkinchi o'rinda turadigan bu mash'um kunda bir daqiqa ichida uchta alohida metro vagonida sodir bo'lgan portlashlar metro xizmatini to'xtatib qo'ydi va o'nlab odamlarning hayotiga zomin bo'ldi. O'sha paytda London metrosida 200 mingga yaqin odam, metro vagonlarida 500 dan ortiq odam bo'lgan. Keyinroq aniqlanishicha, bunday terroristik aktlar oxirgi o'n yillikda bir necha marotaba sodir etilgan. Biroq dunyoda eng yuqori darajada himoyalangan bo'lishiga qaramay London metrosi bunday hujumlarga dosh berolmasligi butun dunyoning diqqat-e'tiboriga tushdi. Tahlillarga ko'ra, 2005-yil 1-yanvardan 2010-yil 30-iyungacha yigirmadan ortiq mamlakatning metro va poyezdlarida 213 ta hujum sodir bo'lgan va buning oqibatida 700 kishi halok bo'lib, uch mingdan ortiq odam jarohatlangan (Williamson, 2013). Bular ro'yxatida RFning Moskva, Sankt-Peterburg, Belarus Respublikasining Minsk shahri metropolitenlarini kiritish mumkin. Dunyo mamlakatlari metropolitenlarida sodir etilgan bunday terrorchilik aktlari metro hududida qoldirib ketilgan narsa va ashyolar yoki "shahid belbog'i"dan foydalanish orqali sodir etilgan. Aynan shuning uchun ham metropoliten hududida qoldirilgan narsa va ashyolar o'ta ehtiyotkorlik bilan sinchiklab tekshiriladi va ehtimoliy xavfning oldi olinadi.

Metropoliten obyektlariga olib kirishga urinilgan taqiqlangan buyumlar (yoki moddalar) yo'lovchilar xavfsizligiga tahdid solishi bilan birga, jinoyat sodir etilishiga shart-sharoit yaratadi va kriminogen vaziyatni taranglashtiradi.

Tadqiqot yo'nalishida 2023-yilda qo'l yuklarini ko'zdan kechirish, vagonlarda qoldirib ketilgan ashyo (buyum)larni tekshirish va metropoliten hududiga taqiqlangan narsalar, ashyo (buyum)larning olib kirilishi, "shahid belbog'i" bilan o'tish bo'yicha sinov-o'quv mashg'ulotlari o'tkazganimizda salbiy natijalar kutilganidan ortiq bo'ldi. Bu, nazarimizda, tashvishlanarli holat va bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Toshkent metropoliteni hali zamonaviy texnikalar bilan to'liq

ta'minlanmagan bunday sharoitda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi eng dolzarb vazifa qilib qo'yilishi davr taqozosiga aylandi. 2024-yildan boshlab vizual raqamli elektron kuzatuv vositalarining test sinovi o'tkazila boshlandi va 2025-yildan ular ishga tushirildi. Lekin baribir metropoliten obyektlarida yo'lovchilar tomonidan kam bo'lsa-da, taqiqlangan buyumlar, masalan, tez yonuvchi, o'tkir hidli moddalar, pirotexnika vositalarini olib kirishga bo'lgan urinishlar uchrab turadi, narsa va ashyolarning unutilib qoldirilishi hollari esa hamon davom etmoqda. Bu holat metropoliten xizmatidan foydalanuvchilar soni yildan-yilga ko'payib borayotgan sharoitda g'oyat tashvishlanarli va kechiktirib bo'lmaydigan keskin choralar ko'rishni talab etadi.

Jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlari metropolitenlarida bu vazifa asosiy o'ringa ko'tarildi va hal qilishga kirishildi. Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlar bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tish mumkin.

2024-yilning fevral oyida Moskva shahrida transport xavfsizligini ta'minlash muammolari bo'yicha "Xavfsizlik va texnologiyalar" ilmiy forumi doirasida "Transportda terrorizm va xavfsizlik" mavzusidagi XXVIII xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda RFning 7 ta shahri metropolitenlarining vakillari ham ishtirok etib, jamoat transporti sohasida qonunchilik va xalqaro huquq normalari, shuningdek, shahar transporti sohasida xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan fikr va mulohazalar almashildi. Konferensiya yakunida namoyish qilingan ko'rgazmada metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'llanadigan yangi texnika va texnologiyalar, eng so'nggi rusumdagi zamonaviy elektron kuzatuv vositalari, mobil va statsionar metallodetektorlar, o'q-dorilar va portlovchi moddalar, radioaktiv moddalarni aniqlaydigan rentgen qurilmalari, narsa va ashyolarni qo'lda tekshiradigan uskunalar namoyish qilindi. Umuman, transport va xususan, metropolitenda yo'lovchilarning harakat jarayonida o'zini mutlaqo xavfsiz his qilishi uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlar ko'rsatildi.

Poytaxtimizda metropolitendan foydalanuvchilar aksariyat hollarda yerosti o'tish joylari, metro platformasi, elektropoyezd vagonlari ichida, uning kirish, nazorat-o'tkazish joylari (NO'J), kassa oldi, depolar hududi, parapetlarda buyumlarini unutilib qoldiradilar.

O'rganishlarimiz natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, harakatdagi tarkibda har kuni ertalabdan kechgacha radio, megafon orqali yo'lovchilarning shaxsiy buyumlari (narsa va ashyolari)ni unutilib qoldirmaslik haqida qayta-qayta eslatilib, hushyorlik va ogohlikka chaqiruvchi xitoblar to'xtovsiz yangrab tursa-da, o'z-o'zidan metropolitendan foydalanuvchi millionlab yo'lovchilar kontingentining muayyan qismi unga amal qilmasligi kuzatiladi. Metropoliten obyektlarida (ayniqsa, bekatlar pududida) 2020–2024-yillar davomida qoldirib ketilgan shaxsiy buyumlar (narsa va ashyolar) haqidagi ma'lumotlar ushbu jadvalda keltirilgan.

Jadval

Metro bekatlarida 2020–2024-yillar davomida qoldirib ketilgan shaxsiy buyumlar (narsa va ashyolar)

| Qoldirilgan joylar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|--|------------|------------|------------|------------|-----------|
| Platformalarda | 65 | 78 | 68 | 51 | 29 |
| Elektropoyezd vagonlarida | 157 | 193 | 161 | 123 | 54 |
| Parapetlarda | 4 | 2 | – | 10 | 6 |
| Nazorat-o'tkazish joylari (kassa oldida) | – | 11 | 4 | 5 | 4 |
| Yerosti o'tish joylarida | – | 6 | 8 | 3 | 2 |
| Depo hududida | – | 1 | – | 2 | – |
| Jami | 226 | 291 | 251 | 184 | 95 |

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, unutib qoldirilgan ashyolarning asosiy qismi harakat tarkibida – elektropoyezdlarning vagonlari ichida bo'lganligi ko'zga tashlanadi va o'tkazilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda qoldirilgan buyumlarning kamaygani kuzatiladi.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya shaharlari metropolitenlarida qoldirib ketilgan ashyolarni joyida rentgen nuri orqali tekshira oladigan uskunalar ishlatiladi. Metropoliten politsiya xodimlari bunday mobil texnik vositalarni qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lib, aksariyat hollarda sapyorlarni chaqirishga ehtiyoj bo'lmaydi.

Metropoliten hududida qoldirilgan narsa va ashyolarni tekshirish hamda uning 9 ta obyektida xavfsizlik holatini o'rganish bo'yicha 2022–2023-yillarda tanlab o'tkazilgan 4 ta tadbir natijalari Toshkent metropolitenida jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvolining qoniqarsiz ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tadbir jarayonida holat “shahid belbog'i” (mulyaj), narkotiklar, qurol-yarog', o'q-dori, portlovchi moddalar va boshqa taqiqlangan ashyo (buyum)larni olib o'tish orqali o'rganildi. Bunda 15 foiz holatda taqiqlangan narsalarni olib kirayotgan “yo'lovchi” to'xtatib qolindi. 70 foiz holatda esa yuk va yo'lovchini tekshirishda xodimlarning hushyorlikni yo'qotganligi aniqlandi. Yana 15 foiz holatda xodimlar sal kechroq bo'lsa-da, taqiqlangan buyumlarni aniqladilar. Bu o'tkazilgan tadbir natijasidan qilingan xulosa metropolitenida jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvolining qoniqarsizligidan dalolat beradi. Har qanday holatda ham bu o'rinda IIO nazoratchi xodimining o'z burchini yetarli darajada bajarmaganligi muhokama qilinadi. Ammo shu o'rinda jamoat xavfsizligini ta'minlashda inson omilining roli zamonaviy texnikasiz yetarli darajada samara bermasligi ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlarimiz natijasida metropoliten obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillardan biri va asosiysi – inson omilining resurs va imkoniyatlari ham ba'zida, ayniqsa, qaltis vaziyatlarda, aholi gavjum bo'lganda imkondan tashqari keng diapazonni qamrab

ololmasligi ma'lum bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, xodimlarning hushyorligini tekshirish natijasida yuzaga kelgan qoniqarsiz ahvolning birinchi sababi ularning diqqatini (e'tiborsizlik yoki ishga sovuqqonlik bilan qarashi tufayli) yo'qotishi bo'lsa, ikkinchisi – taqiqlangan narsa va ashyolarni aniqlay oladigan zamonaviy texnika vositalarining yo'qligidir (yoki yetishmasligi). Jamoat xavfsizligini ta'minlashni qiyinlashtiradigan, bu ishga ko'p miqdorda inson resurslarini taqozo etadigan omilning mavjudligi vaziyatni murakkablashtiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Toshkent metropoliteni infratuzilma obyektlarini RF yirik shaharlari metropolitenlaridagi kabi eng zamonaviy "SmartSkan XR 6045", "Di-Skan 6040", "Inspektor-6040Z", "Inspektor-55/65ZX", "Sirius-P" kabi rengen nuri orqali odam va ashyolarni ko'zdan kechirish maxsus moslamalari bilan jihozlash davr taqozosidir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Metropoliten obyektlari va harakat tarkibini kuzatish jarayonida yo'lovchilarning buyumlarini unutib qoldirmasligi uchun poyezdlarning oxirgi bekatida sinchkovlik bilan operativ vizual nazoratni tashkil etish.

2. Metropoliten bekatlariga kiraverishda taqiqlangan buyumlarini to'xtatib qoladigan statsionar metallodetektorlardan tashqari, zarur hollarda mobil rengen qurilmalaridan foydalanish.

3. Toshkent metropoliteni obyektlari, vagonlar ichida qoldirib ketilgan narsa va ashyolar tarkibini joyida aniqlaydigan maxsus texnika vositalari sotib olish (bunday vositalar Rossiya va boshqa davlatlarda allaqachon qo'llanmoqda).

4. Metropoliten situatsion markazi orqali jinoyatda gumon qilingan shaxslarning narsa va ashyolariga asosiy e'tibor qaratish va ularni to'liq nazorat qilish.

5. Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi operativ xodimlari postdagi xodimlarning hushyor va ogohliligini sinash maqsadida murakkab vaziyatlarda "Mulyaj" o'quv-mashqlarini tanlash asosida o'tkazishni ko'paytirish.

Fikrimizcha, ushbu choralar metropolitenda jamoat xavfsizligini ta'minlash va fojiali oqibatlarining oldini olishda samarali yechim bo'la oladi.

REFERENCES

1. Bayley, E. B. (2022). *Safety Management in Metro Systems: Strategic and Operational Frameworks*. Springer Nature.

2. Galetskiy, V. S. (2021). *Preduprezhdenie korystnykh i koristno-nasilstvennykh prestupleniy na obyektax Moskovskogo metropolitena [Prevention of mercenary and mercenary-violent crimes at the facilities of the Moscow Metro]* (Abstract of Candidate dissertation). Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation.



3. Gazeta.uz. (2020, December 24). *Metroning Yunusobod yo'nalishi qurilishidagi favqulodda hodisa nima bilan yakunlandi? [How did the emergency incident during the construction of the Yunusabad metro line end?]*. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/24/yunusobod-metro/>

4. Igoshkina, A. S. (2009). *Kriminologicheskie aspekty antiterroristicheskoy zashchishchennosti metropolitenov [Criminological aspects of antiterrorist security of subways]*. Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia.

5. Ismailov, I. & Xo'jayorova, N. N. (2023). *Jamoat xavfsizligini ta'minlashning obyektlari va subyektlar. [Objects and subjects of ensuring public safety]*. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

6. Madvaliev, A. (Ed.). (2020). *O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]* (Vol. 3). Uzbekistan.

7. Paylevanyan, G. G. (1991). *Otvetstvennost za narushenie pravil bezopasnosti dvizheniya i ekspluatatsii transporta na metropolitene [Responsibility for violation of rules of traffic safety and operation of transport on the metro]* (Candidate dissertation). Moscow Juridical Institute.

8. Republic of Uzbekistan. (2022). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Adolat [Justice].

9. Seriani, S. (2018). *Crowd management on metro station platforms* (Doctoral dissertation). University College London.

10. Shvetsov, A. V. (2018). *Obespechenie bezopasnosti i zashchity metropolitenov ot nesanktsionirovannogo vmeshatelstva i vozdeystviy [Ensuring security and protection of subways from unauthorized interference and influences]* (Candidate dissertation). Russian University of Transport (MIIT).

11. Smirnov, M. A. (2020). *Administrativno-pravovoe obespechenie obshchestvennoy bezopasnosti na obyekтах metropolitena [Administrative and legal support of public safety at metro facilities]* (Candidate dissertation). Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation named after V.Ya. Kikotya.

12. Wikipedia. (2010). *Vzryvy v Moskovskom metropolitene [Explosions in the Moscow Metro]*. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Взрывы_в_Московском_метрополитене_\(2010\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Взрывы_в_Московском_метрополитене_(2010))

13. Wikipedia. (2011). *Terroristicheskiy akt v Minskom metropolitene [Terrorist attack in the Minsk Metro]*. https://ru.wikipedia.org/wiki/Террористический_акт_в_Минском_метрополитене?utm_source

14. Williamson, T. (2013). *Mass transit: Where security and sustainability meet*. Chapel Hill.

15. Zen5Faktov. (2019). *Primerno 15% vozdukhа, kotoryy vy vdykhaete na stantsii metro, sostoit iz mikrochastits kozhi [Approximately 15% of the air you breathe at a subway station consists of skin microparticles]*. Dzen. <https://dzen.ru/a/XZuA2DZCtgCtPvJ>

16. Ziyodullayev, M. Z. & Eshnazarov, M. J. (2019). *Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatida ma'muriy nazorat [Administrative supervision in activities ensuring public order and security]*. Sharq Imkon Press.

KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 1-son